Qarshi davlat texnika universiteti 2027-yil uchun tayanch doktorantura (PhD), doktorantura (DSc), maqsadli tayanch doktorantura (PhD) va stajyor-tadqiqotchilikka o‘qish uchun quyidagi ixtisosliklar bo‘yicha hujjatlar qabul qilinishini ma’lum qiladi

T/r	Ixtisoslik shifri va nomi	Qabul kvotalari			
		Tayanch doktorantura (PhD)	Doktorantura (DSc)	Maqsadli tayanch doktorantura	Stajyor-tadqiqotchilar soni
ILMIY KADRLAR TAYYORLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARIGA MUVOFIQ BO‘LGAN IXTISOSLIKLAR					
1	02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi	3	1	-	-
2	02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi	3	-	-	-
3	02.00.17 – Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyasi va biotexnologiyasi	5	-	-	-
4	04.00.13 – Neft va gaz konlarini o‘zlashtirish hamda ishlatish	3	-	-	1
5	05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi	4	-	-	1
6	05.05.04 – Sanoat issiqlik energetikasi	3	-	-	1
7	05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari	3	1	-	1
8	05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi	3	1	-	1
9	06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik	5	-	-	1
10	06.01.08 – O‘simlikshunoslik	5	-	-	1
11	11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish	3	-	1	1
ILMIY KADRLAR TAYYORLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARIGA MUVOFIQ BO‘LMAGAN IXTISOSLIKLAR					
12	05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash	2	-	-	-
13	08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti	1	-	-	-
14	08.00.06 — Ekonometrika va statistika	1	-	-	-
15	08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot	2	-	-	-
Jami:		**46**	**3**	**1**	**8**

Tayanch doktorantura (PhD)da o‘qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari kerak:

1. Qisqacha biografik ma’lumot.

2. Elektron tizim orqali integratsiya qilinmagan taqdirda, oliy ta’lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki klinik ordinaturani tugatganligi (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma’lumot (mutaxassislik dasturlari bo‘yicha) to‘g‘risida diplom nusxasi.

3. Nashr etilgan ilmiy ishlar nusxalari (kamida 1 ta maqola va 2 ta tezis).

4. Xorijiy til bo‘yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat.

Doktorantura (DSc)da o‘qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari kerak:

1. Qisqacha biografik ma’lumotnoma.

2. Oliy ma’lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo‘lganligi to‘g‘risidagi diplom nusxasi.

3. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy ma’ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi.

4. Nashr etilgan ilmiy ishlar nusxalari (kamida 3 ta maqola va 2 ta tezis).

5. Xorijiy til bo‘yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat nusxasi.

Tayanch doktorantura (PhD**)**da ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlariga oid ixtisosliklarga o‘qish uchun talabgorlar ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini o‘tkazadilar.

Ustuvor yo‘nalishlariga oid bo‘lmagan ixtisoslikka o‘qish uchun talabgorlar esa mutaxassislik bo‘yicha kirish imtihonlari topshiradilar.

Doktorantura(DSc) va stajyor tadqiqotchilikka o‘qish uchun kirayotgan talabgorlar ixtisoslik bo‘yicha suhbatdan o‘tadilar.

Hujjatlar qabul komissiyasi tomonidan 2026-yil 15-sentabrdan 2026-yil 15-oktabrga qadar Yagona elektron tizim ***www.daraja.ilmiy.uz*** orqali qabul qilinadi.

Qo‘shimcha ma’lumotlar uchun telefonlar: (75) 224-02-89, (75) 221-09-23.

Manzil: Qarshi shahri Mustaqillik ko‘chasi 225-uy, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi.